

SADRIDDIN AYNIYNING “TOJIK ADABIYOTI NAMUNALARI”DA QO’QON ADABIY MUHITINING O’RNI

Maftuna Shomurodova

**O’zR FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti mustaqil tadqiqotchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14049739>

Annotatsiya: Qo’qon adabiy muhiti o’zbek mumtoz adabiyotining ajralmas qismi hisoblanib, u adabiyotimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shgan. Shuningdek, fors-tojik adabiyoti ravnaqi uchun ham sezilarli ta’sir ko’rsatgan. Maqolada Sadridin Ayniyning “Namunai adabiyoti tojik” nomli kitobi va ushbu to’plamdan o’rin olgan Qo’qon adabiy muhiti vakillari haqida fikr yuritiladi.

Kalit So’zlar: Ayniy, fors-tojik, adabiy muhit, ijod, zullisonayn, shoir, tazkira, an’ana, uslub.

Hozirgi tojik va turkiy adabiyotshunoslikning kelib chiqishi va rivojlanishi Sadridin Ayniyning o’ziga xos o’rni bor. Bu borada adabiyotshunosning “Tojik adabiyoti namunalarini” tazkiri asosiy rol o’ynaydi. Klassik adabiyotni, xalq og’zaki ijodi va mumtoz asarlarni o’z ijodining asosi va manbasi deb bilgan adibning adabiy fikri zamonaviy muhit talablaridan kelib chiqib, yangicha ko’rinishda namoyon bo’lgan va bu “Namunai adabiyoti tojik”da o’z ifodasini topgan. Mazkur asar Sharqda boy an’anaga ega bo’lgan tazkira yozishning XX asr boshlarida o’ziga xos tarzda davom ettirilishi sifatida ko’zga tashlanadi. Ayniy tazkiri haqida fikr yuritayotib adabiyotshunos olim Botirxon Valixojayev o’sha davrlarda, ya’ni XX asrning boshlarida yaratilgan boshqa tazkiralardan bilan, jumladan Sharifjon Maxdum Sadri Ziyoning “Tazkiri ash’or”, Ahmadjon Tabibiyning “Majmuat ush-shuaroi Firuzshohiy”, Afzal Maxdum Pirmastiyning “Afzal ut-tazkor” va yana bir nechta tazkiralardan bilan qiyoslaydi. Boshqa tazkiralardan “asosan, XIX asr oxiri va XX asr avvalida Buxoro va Xorazm adabiy muhitini qamrab olgan bo’lsa, “Namunalar” X – XX asrlarda Movarounnahr hududlaridagi adabiy jarayonni imkon doirasida yoritishga bag’ishlangan. Demak, “Namunalar”ning ham zamon va ham makon nuqtayi nazardan qamrovi keng” [5,15] - deydi olim. Tazkiri Qo’qon adabiy muhiti vakillari haqida ham qimmatli ma’lumotlar uchraydiki, u o’zini “adabiyotning chinakam ixlosmandiman” deb hisoblovchilarni befarq qoldirmasligi tayin. Jumladan: Amir Umarxon – voliyi Farg’ona, Nodira Andijoniy, (126 bet), Zokirxo’ja Namangoniy (211), Ramzi Xo’qandiy (213), Rindiy Namangoniy (213), Fazliy Namangoniy (297), Kasrati Namangoniy (309), Mirsaidg’ozi Nolai Xo’qandiy (330), Gulxaniy Namangoniy (311), Behchati Farg’onagiy (159), Mulloshermuhammad Akmal Xo’qandiy (143) kabi. E’tibor qilsak, Ayniy tadqiqotida, deyarli, har bir ijodkor nomiga uning qayerdanligini (ba’zan unvonini: voliy, qozikalon, maxdum) anglatib turuvchi so’zlarni taxallusining bir qismi sifatida qo’shimcha qilganki, bu hol aksariyat tazkiralardan uchramaydi (Buxoriy, Namangoniy, Xo’jandiy, Xo’qandiy, Kattaqo’rg’oniy kabi). Bu o’z navbatida, aniqlikni xush ko’ruvchi tuzuvchining o’ziga xos uslubi bo’lib, mutolaa jarayonida kitobxon uchun hududiy jihatdan tasavvurini tiniqlashtirib borishda kompas vazifasini o’taydi. Yuqorida nomlari tilga olingan Qo’qon adabiy muhit ijodkorlari haqida Ayniy qarashlarini tahlil qilishdan oldin “Namunalar”ning tuzilishi haqida ma’lumotga ega bo’lsak. Asar dastlab 1926-yilda Moskvada, keyinchalik 2010-yilda Dushanbeda nashr etilgan bo’lib, uning yuzaga kelishida bir nechta qo’lyozma manbalar va tazkiralardan foydalanilgan. Jumladan, Mirzamuhsin Ibrohimiyning “Namunai adabiyoti Eron”, Lutfalibek Ozariy jamlanmasi bo’lmish “Otashkada” tazkiri,

Jomiyning “Bahoriston”ni, G’ulom Alixon Ozodning “Xizonai omira”, Shamsiddin Somibekning “Qomus-ul-a’lom”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Xoja Hasan Nisoriyning “Muzakkir ul-ahbob”, Sulton Muhammad Mutribiy Buxoriyning “Tazkirat ush-shuaro”, Muhammad Avfiy Buxoriyning “Lubob ul-albob”, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Sharifjon Maxdum Sadri Ziyoning “Tazkirat ush-shuaro mutaqaddimin”, Qori Rahmatillo Vozehning “Tuhfat ul-ahbob”, Muhammad as-Saolibiyning “Yatimat ad-dahr”, Faxriddin Ali ibn Husayn al-voizning “Rashahot”, Vosifiyning “Badoe ul-vaqoe”, Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron”, So’fi Ollohyorning “Maslak ul-muttaqin”, Afzal Maxdum Pirmastiy Buxoriyning “Afzalut-tazkor fikri zikr-ush-shuaro v-al-ash’or” va boshqa jami 80 ta manbadan foydalanadi. Garchi kitobni Sadriddin Ayniyning o’zi to’plam deb atagan bo’lsada-da, uni tazkira deyish mumkin. Negaki, tazkira arabcha zikr so’zidan tuzilgan bo’lib, esdalik daftari degan ma’noni anglatadi va ularda nomi tilga olingan ijodkorlarning qachon yashaganiga ko’ra zamondoshlarga bag’ishlangan tazkiralarga va tarixiy-zamonaviy tazkiralarga bo’linadi. Shunga ko’ra, “Namunalar”ning avvalgi bobi tarixiy tazkira namunasi bo’lsa, ikkinchi bobi tarixiy-zamonaviy (ya’ni ham avval yashab ijod qilgan va ham ayni paytda hayot bo’lgan shoirlar haqida) turga mansub. So’nggi bobi esa zamondoshlariga bag’ishlangan tazkiraga misol bo’ladi. Kitob tuzilishiga ahamiyat beradigan bo’lsak, uch qismga bo’lingan bo’lib, shoirlar, olim, yozuvchilarning o’zi mansub bo’lgan davri hisobga olingan. Birinchi qismda hijriy 300-1200-yillar – Abulhasan Rudakiy Buxoriydan boshlab Sayyido Nasafiygacha 75 ta va yana 5 ayol ijodkorlar, jami 80 ta ijod ahli kiritilgan. Ikkinchi qism hajman ancha yirik bo’lib, unda hijriy 1200-1343-yillarga mansub jami 132 qalam ahli sanab o’tilgan hamda mazkur qism o’zidan avvalgi va keyingisidan ijodkorlarning nomlari eski tojik alifbosi tartibida joylashtirilganligi bilan farqlanadi. Uchinchi qismning ham o’ziga xosligi mavjud bo’lib unda avvalgi bobda tilga olingan ijodkorlar nomining bir nechtasini yana uchratishimiz mumkin. Masalan: Abdurauf Fitrat, Sidqiy Ajziy, Munzim, Zehniy kabi. Nega takror? - degan savol tug’ilishi tabiiy. Gap shundaki, so’nggi bobda janr, uslub va mavzu jihatidan yangi tojik adabiyoti namunalari tilga olingan. Bizga ma’lumki, Ayniy kabi boshqa bir qancha ijodkorlar ham o’sha davrda ham mumtoz klassik adabiyot janrlarida, ham endigina yuzaga kelayotgan yangi uslublarda ijod qilishgan. Mazkur bobning o’zi ichida yana ikkiga bo’lingan bo’lib, milodiy 1905-1917, 1917-1925-yillarga oid ayni o’sha paytlarda ijod qilayotganlarning vaqtli matbuotlardagi chiqishlari o’rin olgan. Demak, umumlashtirganda “Tojik adabiyoti namunalari”da obyektiv sabablar va geografik chegaralar tufayli Movarounnahr va Turkistonda yashagan va bu joylar bilan aloqador bo’lgan 220 ga yaqin shoir, yozuvchi, tazkiranavis, ijodkor olimlar kiritilgan. Ularning har biri haqida qisqa, ammo mazmunli ma’lumot berilgan bo’lib, fors-tojik tilidagi ijodlaridan misollar o’qishimiz mumkin. Berilgan namunalarning ijobiy fazilatlarini, mavzu ko’lami, san’atkor uslubi, badiiy mahorati, mavjud bo’lsa, qusr va kamchiliklari borasida muallif tomonidan fikr va mulohazalar yuritiladi. To’ra Mirzayev takidlaganidek: “Sadriddin Ayniy ijodi bilan bog’liq bir muhim masala adabiyotdagi ikki tillilik (bilingvizm) muammosidir”[3,4] deydi. Bu esa Ayniy tazkirasining yana bir o’ziga xosligi bo’lib asardagi shoirlar zikrida o’z ifodasini topgan. Majmua nomidan ham ma’lumki, unda faqatgina fors-tojik she’riyatidan iqtiboslar olingan bo’lishiga qaramay, mualliflar orasida arab va turkiy tilda – o’zbek tilida ham ijod qilganlar talaygina. Adabiyotshunos Majid Hasanov: “Sadriddin Ayniy “Namunai adbiyoti tojik” kitobiga o’zbek shoirlarini kiritar ekan, ko’proq ularning fors-tojik tilida yozgan asarlari bilan qiziqadi, tojik adabiyoti taraqqiyotiga o’zbek shoirlari qo’shgan hissani faxr bilan qayd etadi”, – deydi.

XVIII-XIX asrlarda shakllanib, atrofida yuzlab iste'dodli ijod ahllarini birlashtirgan Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodi Ayniyni ham befarq qoldirmaydi. Chunonchi: "Namunalar"ning ikkinchi qismi "matlasi" Amir Umarxon ta'rif va tavsifi bilan boshlanadi. Bilamizki, Qo'qon xoni bo'lmish Amir Umarxon "Amiriy" taxallusi bilan ijod qilgan va muhitning yuzaga kelishida boshchilik qilgan. Darhaqiqat, Amiriy ham o'zbek ham fors-tojik tilillarida mahorat va fasohat bilan qalam tebratib zullisonayn ijodkorlarning peshqadami bo'lgan. Sadridin Ayniy, dastlab, Amiriyning "savgandam" ("qasam ichaman") va "angusht" ("barmoq") radifli ikki go'zal g'azallaridan misol keltiradi. "Savgandam" radifli g'azalini bir qo'lyozma majmuadan olganligini aytadi:

*Buvad dar ishq gah bo mushafi ruxsor¹ savgandam,
Gahe bo halqai geso'yi anbarbor savgandam.*

Tarjimasi: Ishqqa giriftor bo'lganligimni goh ruxsor yuzidagi nur ila qasam ichsam, gohida anbar sochuvchi o'rilgan soch chambaragi ila qasam ichaman.

*...Ba dorulmulki lutfat mahzari ishq tu ovardam,
Nadoram shohide cho, bideh nochor savgandam.*

Tarjimasi: Lutfingning xazinasini uchun eng yaxshi ishqni senga keltirdim, bu yerda guvohim yo'q, ilajsizlikdan qasam ichaman.

*Amir, omad bahoru juz shikastan nest imkone,
Dihad gar muhtasib bar tarki may sad bor savgandam.*

Tarjimasi: Amiriy, bahor keldi, uning shavqini tark etishdan boshqa imkon yo'qki, agar muhtasib (muhtasib- shariatga xilof ishlarni tekshiruvchi) so'rasa ham mayni tark etish uchun yuz bor qasam ichaman.

To'plovchi keyingi "angusht" radifli g'azalni Muhtaram Buxoriyning "Radoif ul-ashor" tazkirasidan oladi:

*Ba shavqi on ki rasonam ba zulfi yor angusht,
Chu shona medomad az dasti man hazor angusht...*

Tarjimasi: Yorning zulfini barmog'im bilan silash zavqiga erishsaydim, mening qo'limdagi barmoqlarim ming taroq kabi dam urardi.

Ayniy Umarxonning ijodiga ulkan baho berib, o'z davri uchun ko'plab adabiy iste'dodlarning yetishib chiqishida rahnamo bo'lganligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy davrida gullab yashnagan turkiy she'riyat Amiriy davrida ikkinchi bor yuksalganligini e'tirof etadi va o'quvchi diqqatini shoir g'azallaridagi radiflarning o'ziga xosligiga qaratib, ularga alohida e'tibor berish lozimligini uqtirib o'tadi [1,139-140]. Mazkur tazkirada Qo'qon adabiy muhiti vakillaridan Shermuhammad Akmal Ho'qandiyning Bedil g'azaliga muxammasi va "burun" radifli bir g'azali kiritilgan. Behchatning "angusht" va "burun"; Zokirxo'ja Namangoniyning zulqofiyatayn (ikki qofiyali) san'ati asosidagi g'azali; Ramziy va Rindiyning "burun" radifli g'azallari; Fazliy Namangoniyning ham tazkisasi mavjudligini aytib, ijodidan namuna keltiradi. Buni qarangki, Kasrat va Gulxaniyning ham aynan "burun" radifli g'azallarini keltiradi; Mirsayidg'ozi Nolai Xo'qandiyning "muraxxas" radifli har misrasi *mafo'ilun fa'ilotun, mafo'ilun fa'ilotun* vaznli g'azali tanlangan. Shu o'rinda, olim Sharq adabiyotida avvaldan mavjud bo'lgan radifgo'ylik an'anasi

¹ Mushafi ruxsor – birikmasi Navoiy g'azallarida ham uchraydi:

Ey qilib ravshan ulus topmoqqa anvari xudo,

Mushafi ruxsor uzra "Vash-shams" birla "Vaz-Zuho". "Istiqloq davri o'zbek navoiyshunosligi". 30 jildlik, 22-jild. T.,

"Tamaddun", - 2021. B.- 66

aynan Amiriy davrida ravnaq topganligga e'tibor qaratadi. So'zining isboti sifatida keyingi tilga olinadigan Qo'qon adabiy muhiti vakillarining ijodidan aynan Amiriyga ergashib yozilgan bir xil radifli g'azallarini tanlab oladi. Bu bilan jamlanmada mazkur adabiy muhitning o'ziga xos jihatlari bo'rtib, yaqqol ko'zga tashlanib turishiga erishadi. Sadriddin Ayniy tazkirani tartib berishda, garchand, Amiriy va Nodirani alohida boblarga kiritishiga to'g'ri kelsada, ajoyib yechim bilan ularni yonma-yon joylashtiradi. Ya'ni birinchi qism yakuni beshta ayol ijodkorlar zikri bilan tugallanganda Nodira ularning so'nggisi bo'lsa, ikkinchi qism boshlanmasi Amiriy ijodi bilan boshlanadi. Sadriddin Ayniy Nodira ijodiga kelganda uning turkiy va forsiy mukammal devoni borligini, lekin afsuslar ila uni ko'rishga muyassar bo'lmaganini yozadi. Bir necha manbalarda shoiraning turkiy she'rlariga guvoh bo'lgan Ayniy, faqatgina "Tavorixi xamsai sharqiy" da mavjud forsiy savol-javobni katta ehtimol ila Nodira qalamiga mansub deya keltiradi.

Suolu avob

Suoli Umarxon:

Zeri domoni tu pinhon chist, ey gulpirahan?

avobi Nodira:

Nakshi summi oxui Chin ast dar bargi suman.

Umarxon:

Boz tashbehi digar kun, to bigardam az sarat.

Nodira:

G'unchai serobro monad, ki nashkufta dahan

Shu o'rinda garchand zamon jihatidan Qo'qon adabiy muhitiga kirmasa-da, makon jihatdan ushbu hudud farzandi bo'lmish Mashrabning qisqagina tavalludi va fojiali vafoti to'g'risida yozgach 6 misrali quyidagi forsiy g'azali yod etilgan:

Balandiho zi xoki faqr shud koshonai moro,

Falak qolin zi regi dasht basta xonai moro.

Guli Xurshed pindorad saharho zohid az masti,

Kafi sayyori afloki xumi mayxonai moro.

Gumon sozad haram chun shu'lai imoni xud, Mashrab,

G'ubori xoki rohi rohibi butxonai moro.

Mazmuni:

Sadriddin Ayniy Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodidan namunalar olish uchun asosan "Radif ul-as'hor" va "Tuhfat ul-ahbob" tazkiralariga murojaat etgan.

Hozirgi kunga kelib Qo'qon adabiy muhiti vakillarining ijod namunalari zahmatkash adabiyotshunoslar, yosh tadqiqotchilar tomonidan har tomonlama tahlil etilayotgani va mavjud muammolarga amaliy yechim topilayotgani quvonarli hol. Bu borada Sadriddin Ayniyning "Namunai adabiyoti tojik" tazkisasi ham ma'lum ma'noda xizmat qilishi shubhasiz.

References:

1. Sadriddin Ayniy. Namunai adabiyoti to'qik. – D.: Adib, 2010.
2. Sadriddin Ayniy. Asarlar. Sakkiz tomlik, sakkizinchi tom. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.
3. Mirzaev T. Sadriddin Ayniy ijodini o'rganishning ayrim masalalariga doir.// O'zbek tili va adabiyoti.2003-yil. №5.

4. Haqqulov I. Ayniy abadiyati // O'zbek tili va adabiyoti.2003-yil. №5
5. Sadriddin Ayniy. Asarlar. Sakkiz tomlik, sakkizinchi tom. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1967..
6. Valixo'jaev B. Ustod Ayniy merosi // O'zbek tili va adabiyoti.2003-yil. №5
7. Hasanov M. Ayniy chamani. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.